

---

Qo'shtepalik yoshlar "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida "Gandbol" musobaqasining Respublika bosqichiga yo'l olishdi

Qo'shtepa tumani "Fayz" mahallasi yoshlari "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida sportning gandbol turi bo'yicha musobaqaning Respublika bosqichida ishtirok etish uchun Andijon viloyatiga yo'l oldilar.

"Fayz" mahallasi yoshlari "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida sportning gandbol turi bo'yicha viloyat bosqichida tengsiz deb topilib Respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritgan edilar.

Sportchilarimizga Qo'shtepa tumani hokimi A.Abdullayev va O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi boshlig'i A.Ziyovuddinovlar ishtirokida sport anjomlari topshirildi va ular musobaqaga yo'l oldilar.































2024-11-03 18:32:43